UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI 6-SINF “ONA TILI” DARSLIDA “:QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR” MAVZUSIDA NOAN’ANAVIY DARS USLUBI

Raufova Marjona
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi
Rahmatova Mohina
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili darsliklarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar asosida qo‘llaniladigan metodlar va o‘quvchilarga mavzuni qulay va oson tushunishlari uchun qo‘llaniladigan uslublar va tavsiyalar keltirilgan. Jumladan ushbu metodlar, usullar va tavsiyalar bakalavr bosqichida o‘qiyotgan talabalarning mustaqil ta’limlar va o‘quv amaliyot jarayonlarida shakllangan tajribalariga asoslanib “Qayta ishlanadigan chiqindilar” mavzusida yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Darslik, imlo, metod, texnologiya, fe’lning munosabat shakllari, ta’lim, kompetensiya,biznes g’oya.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta’limning jahon andozlariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Aynan shu nuqtai-nazradan olganda, hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham, lug’aviy grammatik munosabatlar sistema ham yanglandi va rivojlantirildi. Shu sababli pedagogika institutlari hamda universitetlarini bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgarliksiz ona tili mashg’ulotlarini talab darajasida o’tkazishga qiynaladilar. Ushbu qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida Oliy ta’limda bo’lajak pedagoglar uchun maktab darsliklarini o’qitishga asoslangan bir qancha fanlar qo‘shildi va o‘quv amaliyotlari, mustaqil ta’lim darsliklari, uzliksiz amaliyot ta’lim mashg’ulotlari tashkil qilindi. Ushbu o‘zgarishlarga asoslanib, quyida tajribalar asosida yig’ilgan ma’lumotlarni bir mavzu doirasida qisman tahlil jarayonida ochib bersak.

Mavzu: “Qayta ishlanadigan chiqindilar”

Soat: 5soatga mo’ljallangan

Darsda o’tilishi kerak: Tabiatni asrash,qayta ishlashning ahamiyati. Fikrni tartiblash va umumlashtirish. Taqdimot tayyorlash. Fe’llarning munosabat shakllari. Gap oxiridagi tinish belgilari(ko’p nuqta).

Kompitensiya: mavzuda 4 kompitensiyaga e’tibor berilgan

1-dars. Bu dars guruhlarga bo’ib , jamoaviy tarzda olib boriladi.

Darsdan maqsadi: O’quvchilarda tinglab tushinish ko’nikmasini shakllantirish va atrof- muhitni ifloslaydigan chiqindilar bilan tanishtirish.

1-mashq. Berilgan so’zlardan to’g’ri yozilganini ko’chirib yozing:

Energetika-energitika, mexanizim-mexanizn, metalurgiya-metallurgiya, ob’yekt-obyekt, pastmassa-plastmassa, eksprt-ekspert, Shimoliy Yevropa- Shimoliy yevropa,selofan-sellofan, polietilen- polietilen, konteyner-kontiner,gidro inshoot-gidroinshoot.

METOD: “Men kimman**”**

Ushbu metodda doskaga bir o’quvchi chiqadi uning boshiga maxsus qalpoq keygiziladi, unga atrof muhitni ifloslaydigan sabablar yoki narsa nomlari yoziladi, o’quvchilar uning nomini aytmasdan uni belgilarini aytadi, doskadagi o’quvchi esa boshidagi qalpoqda yozilgan so’zni topishi kerak. Tariflar soni 3tadan oshmasligi kerak. Bu orqali o’quvchilarni fikri jamlaydi, so’zlarni tarifilashni o’’rganadi.

2-mashq. Atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo’luvchi chiqindilarni hosil qiladigan sohalarni ajratib yozing. Ular qanday qilib atrof muhitni ifloslantirishi mumkinligini izohlang.

METOD: Doskaga o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ko'rgazma ilinadi, unda chiqindi idishlari tasvirlanadi, qanday chiqindilarni qaysi idishga solish kerakliligi haqida tushuncha beriladi. Masalan: sabzavodlardan chiqqan qoldiqlar ekologik chiqindilar qutisiga tashlanadi. Oqituvchi o'quvchilarga yozilishi qiyin bo;lgan chiqindilarning rasmi tushurilgan kartochkalarni tarqatadi, o'quvchilar uning orqa tomoniga uning nomini imlo qoidalariga mos ravisjda yozadi va doskadagi chiqindilar qutisiga joylashadi. Agar o'quvchi chiqindi qutisini to'g'ri tanlasa 1ball to'g'ri yozgan bo'lsa yana 1balga ega bo'ladi va kartochkalar bilan rag'batlantirib boriladi. Bu metod asosan kichik guruhlarga bo'linib ishlaganda tavsiya etiladi.

Uyga vazifa; Atrof muhitga yetkazayotgan ziyon va foydalaringiz haqida qisqa maqola yozing.

Darslikda berilgan uyga vazifa o'trniga shunday uyga vazifa berishni tanlagan bolardim, chunki hozirda bizning atrof muhit ifloslanishi juda yuqori darajada, atrof muhitga yetkazayotgan ziyonlarini o'quvchi o'ylab mulohaza qilib yozsin va unga yechim taklif qilsin. Qo'lidan kelsa amalda joriy qilsin.

2-dars. Bu darsda yakka tartibda ishlanadi .

Dars maqsadi: O'quvchilarni o'qib tushinish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi va fe'lning munosabat shakllari bilan tanishtiriladi.

Darslikda berilgan matnni o'qituvzi ifodali o'qib beradi. Matn ostidagi savollarga o'quvchilar javob beradi. Matn yuzasidan o'quvchilar fikri so'raladi, ularda qanday takliflar borligiga qiziqiladi.

1-mashq. Matndan olingan quydagi parchada ishtirok etgan fellarni aniqlang, ularni berilgan namuna asosida o'zgartiring.

Xose "Ekologil"ni boshqarishdan tashqari tengdoshlariga pulni to'g'ri sarflash yo'llarini ham o'rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qara- mikrokredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

O'qituvchi **"Fe'lning munosabat shakllari"** mavzusi bilan tanishtiradi:

Fe'lning zamon va shaxs- son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. . Fe'llar 3zamondan biriga tegishli harakat va holatni bildiradi: o'tgan zamon, hozirgi zamon , kelasi zamon.

Xose 7yoshida birinchi bo'lib "Ekologik" bankka asos solgan(o'tgan zamon)

Xosening tadbirkorligi ortidan bugun 2500 bola maktabga qatnayapti(hozirgi zamon)

Xose kelajakda 20000 bolaga yordam bermoqchi(kelasi zamon)

Harakat va holatning bajaruvchi shaxini , bu shaxs bitta yoki ko'p ekanligini bildiruvchi shakllar shaxs- son shakllari deyiladi.

Xose tengdoshlariga pulni qanday sarflash yo'llarini o'rgatdi(3-shaxs, birlik)

2-mashq

Berilgan fe'llarni 3ta zamonda shaklida ifodalang. Ular ishtirokida nutqiy mavzu doirasida gaplar tuzing, yozing.

To'plamoq, saralamoq, yasamoq, so'zlamoq, bormoq, yordam bermoq,amalga oshirmoq, qaror qilmoq.

Uyga vazifa . Siz ham uyingizda qayta ishlasa bo'ladigan chiqindilarni yig'ib ularni qayta ishlash korxonalariga topshiring. Ulardan qanday kerakli buyumlar yasash mumkinligi haqida kichik matn tuzing.

3-dars. Dars ananaviy tarzda o'tiladi.

Dars maqsadi: Fe'l zamonlarini takrorlash va o'quvchida yozuv ko'nikmasini shakllantirish

1-mashq

Darslikdagi matndan parchani o'quvchilar bilan birgalikda o'qituvchi o'qiydi , undagi fe'llarni aniqlaydi, fe'llar qaysi zamondaligini o'quvchilardan savol javob tariqasida aniqlab olanadi.

O’quvchilarga fe’llarni ko’chirish va fe’l zamonlarini ifodalovchi qo’shimchalar tagiga chizish aytiladi, keyin o’quvchilardan og’zaki tarzda so’rab berilgan topshiriqdan baholanadi. Bu orqali o’quvchilarning fe’l mavzusini qay darajada tushunganini bilib olish mumkin.

1-topshiriq

Xose haqidagi matndan 3ta so’roq gaplar tuzing. Tuzgan savollaringizga partadoshingiz javob yozsin.

2-topshiriq

Partadoshingiz tuzgan savollarga javob yozing va gapdagi fe’llar qaysi zamon qo’shimchasi orqali yasalganini ayting.

Uyga vazifa.

Keying darsgda biznes go’ya yaratish topshirig’I beriladi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog’liq loyiha haqida o’ylang. O’z g’oyalaringizni taqdimot qilish uchun tayyorlaning.

4-dars. Bu dars musobaqa tarzida olin boriladi.

Dars maqsadi: Darsda o’quvchilarga biznes reja tuzish o’rgatiladi va ularning og’zaki nutqini rivojlantirishga e’tibor qartiladi.

O’quvchilar 3 guruhga ajraladi. Dars savol-javob bilan boshlanadi, guruhlar javoblariga qarab kartochkalar bilan taqdirlanib boriladi va oxirida ballar hisoblanadi. Guruhlar to’plagan ballariga qarab baholanadi.

1-savol . Biznes g’oya nima?

2-savol. Chiqindi beznisi haqida fikringiz qanday?

3-savol. Qata ishlangan chiqindilardan qanday mahsulotlar tayyorlash mumkin?

Qiziqarli topshiriq.

Guruh bo’lib biror biznes loyiha tayyorlang.

Loyihalar qay darajada kreativligiga qarab baholanadi.

1-mashq

Biznes rejangizni quydagi korinishda yozing va og’zaki tarzda ularni izohlang.

Maqsad:

Buni qanday amalga oshiraman?

Xarajatlar:

Zarur resurslar(kerakli narsalar)

Ish jarayonining borishi.

Savollarga qay darajada aniq yondashilganiga qarab baholanadi.

Dars so’ngida guruhlar yig’gan baholar hisoblanib “5”, “4”, “3” ballar bilan baholanadi. Bunday baholash orqali o’zlashtirishi past o’quvchilarga o’zlashtirishi yaxshi o’quvchilar yordam beradi, ularni harakatga undaydi. Bu usul orqali sinfda jamoviy ishlashni ham shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. 6-sinf “Ona tili” darsligi
2. A.G’afurov “ Ona tilini o’qitish prinsiplari va metodlari” T.O‘qituvchi. 1992
3. Sh.Rahmatullayev, A.Xojiyev” O’zbek tilining imlo lug’ati” 1995-yil
4. Arxiv.uz